

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA PEDAGOGIK KENGASHNI NOAN'ANAVIY SHAKLLARDA TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Ixtiyorova O'g'iloy

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika Universiteti Ta'lism tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lism) 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7378488>

*Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotilaridagi pedagogik kengashning mazmun – mohiyati, vazifalari hamda tashkil etishning noan'anaviy texnologiyalari xususidagi fikrlar keltirilgan.*

*Kalit so'zlar: pedagogik kengash, rolli o'yinlar, matbuot konferensiyalari, ijodiy hisobotlar, musobaqalar, KVN turidagi o'yinlar, tanlovlari, teatrlashtirilgan darslar, binar darslar, kompyuterli darslar, fantaziyalar, "sudlar", haqiqatni izlash, "paradokslar", auksionlar, dialoglar.*

## ТЕХНОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО СОВЕТА В НЕТРАДИЦИОННЫХ ФОРМАХ В ОРГАНИЗАЦИИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Аннотация. В данной статье представлены сведения о содержании, функциях и нетрадиционных организационных технологиях педагогических советов в дошкольных учреждениях.*

*Ключевые слова: педагогический совет, ролевые игры, пресс-конференции, творческие отчеты, конкурсы, игры КВН, конкурсы, театральные уроки, бинарные уроки, компьютерные уроки, фантазии, «суды», поиск истины, «парадоксы», аукционы, диалоги.*

## TECHNOLOGY OF ORGANIZING THE PEDAGOGICAL COUNCIL IN NON-TRADITIONAL FORMS IN THE ORGANIZATION OF PRESCHOOL EDUCATION

*Abstract. This article discusses the content, objectives and non-traditional organizational technologies of the pedagogical council in preschool education.*

*Keywords: pedagogical council, role-playing games, press conferences, creative reports, competitions, KVN games, competitions, theatrical lessons, binary lessons, computer lessons, fantasies, "courts", truth search, "paradoxes", auctions, dialogues.*

### KIRISH

Maktabgacha ta'lism tashkilotlarda yosh avlodning aqliy-intellektual, estetik, jismoniy, ma'naviy salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu borada pedagog rahbar-jamiyatning yosh avlod ta'lism-tarbiyasiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ijrochisiga aylanishi muqarrar. Bugungi kunda jahonda texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi davrida maktabgacha ta'lismni isloh qilish, komil insonni tarbiyalash, ularga zamonaviy ta'lism berish masalalari birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo'lgan muammo hisoblanadi. Aynan, maktabgacha ta'lismni isloh qilishda bolaning maktabga tayyorgarligi bilan belgilanuvchi ta'lism sifatini oshirish muhim va zaruriy bo'lib hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, maktabgacha ta'lism tashkilotlarda ta'lism sifatini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlar, boshqaruv, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ta'lism-tarbiya jarayoniga joriy etishda rahbarlik layoqatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy majlisga yo'llagan murojatida "Ilm va ta'limning qadriga yetib, davlatimizda ilm va ta'lim o'rganish bilan muhit yaratilsa, bobolarimizga munosib hayot va kelajakni qura olamiz"- deya ta'kidlaganlar. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek O'zbekistonning ertangi kuniga ishonchni mustahkamlash, ajdodlarga munosib bo'lish uchun islohatlarni ilmdan boshlash kerak. Chunki ilmsiz hech bir sohada natija bo'lmaydi. Keyingi uch yilda bu boradagi muammolarni samarali hal etish, mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu maqsadda qator farmon va qarorlar qabul qilinib, bu boradagi kompleks sa'y-harakatlar uchun puxta huquqiy zamin yaratildi. Barchamizga ma'lumki maktabgacha ta'lim ta'lim tizimining ilk bo'gini ya'ni asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham bu sohaga juda katta e'tibor berilmoqda.

### NATIJA

Pedagogik kengash jamoa pedagoglari fikrini ifodalovchi, bolalar bilan olib boriladiga ta'lim-tarbiyaviy masalalarni kollegial ko'rib chiqadigan doimiy ishlovchi organ, metodik mahorat maktabi va ilg'or tajriba minbaridir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori Pedagogik kengash raisi hisoblanadi.

Pedagogik kengashga quyidagi masalalar: bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar darajasini oshirish, ularni hal qilish yo'llarini izlash; muassasa ish amaliyotga pedagogika fanining yutuqlari va ilg'or pedagoglar tajribasini joriy qilish; tarbiyachilarining pedagogik mahoratini oshirish, ularning ijodiy faolligini rivojlantirish kiritiladi.

Pedagogik kengash maktabgacha ta'lim bo'yicha buyruq, yo'l-yo'riq, nizom va boshqa me'yoriy hujjatlarni; maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik ish rejasini; bolalar sog'ligini mustahkamlash tadbirlarini; har bir yosh guruhlari bo'yicha dasturining sifatli bajarilishi jarayonini; ish amaliyotiga joriy qilish maqsadida tarbiyachilarining ilg'or tajribalarini; maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishning dolzarb masalalarini, tarbiyachilarining nazariy va metodik tayorgarliklarini oshirish masalalarini va maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatining boshqa masalalarini muhokama qiladi.

Pedagogik kengashlar kun tartibini belgilashda barcha qatnashchilarni qiziqtiruvchi mavzuning kengligini, dolzarbligini ta'minlash zarur. Faqat shundagina Pedagogik kengashda ish muhiti hukm suradi, masalalar muhokamasi sermaxsul va faol bo'ladi. Pedagogik kengash tarkibiga: uslubchi, tarbiyachilar, musiqa rahbari, maktabgacha ta'lim muassasasiga hizmat ko'rsatuvchi shifokor, katta hamshirasi, kasaba uyushma, ota-onalar qo'mitasining raisi xamda vasilik kengash raislari kiradi. Pedagogik kengash yig'ilishiga jamoat tashkilotlarining vakillari, maktablar o'qituvchilari, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ota-onalari taklif etilishi mumkin. Pedagogik kengash maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik ish rejasiga kiritilgan va pedagoglar Pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlangan reja bo'yicha ishlaydilar.

Pedagogika kengashi faoliyatini tashkil etish va uning ish mazmuni

- Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari Kengashning raisi hisoblanadi va uning faoliyatini boshqaradi. Pedagogika kengashi kotibi jamoa tomonidan bir yil muddatga saylanadi.

- kengash yig'ilishlari o'quv yili avvalidan boshlanib, har chorakda bir marta o'tkaziladi.

Zaruriyat bo'lgan hollarda navbatdan tashqari Pedagogika kengashi o'tkazilishi mumkin.

- kengash a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashib, ulardan ko'pchiligi yoqlab ovoz bersalar, qaror qabul qilingan hisoblanadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda, Kengash raisining qarori hal qiluvchi hisoblanadi.

- navbatdan tashqari chaqirilgan yig‘ilishida esa kengash a’zolarining kamida uchdan bir qismi ishtirot etishi kerak, ovoz berish tartibi kengash yig‘ilishida ochiq ovoz berish yo‘li bilan belgilanadi.

- pedagogika kengashi tarkibiga muassasa shifokori va hamshira, kasaba uyushma raisi, ota-onalar qo‘mitasi raisi, mahalla fuqarolar yig‘ini a’zolari kirishi mumkin, kengashning o‘tkazish vaqtி, joyi va kun tartibi muassasada bir oy oldin e’lon qilinadi.

- kengashda muhokama etiladigan materiallar doimiy hamda vaqtinchalik tashkil topgan guruuhlar yoki muassasa ma’muriyati tayinlagan pedagoglar tomonidan tayyorlanadi.

- kengashda muassasaning ish rejasi, malaka oshirish rejasining bajarilishi, nazorat turlari bo‘yicha o‘rganish xulosalari, xodimlarning hisobotlari, tarbiyalanuvchilarining o‘zlashtirishi, muassasaning sanitar-gigienik ahvoli va tarbiyalanuvchilarining sog‘lig‘i va muassasa faoliyatining boshqa masalalari ko‘rilib chiqiladi. Kengash pedagoglarning ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish, umumlashtirish va ommalashtirish, yosh pedagoglarga yordam uyuştirish ishlarini amalga oshirish yo‘llarini belgilaydi.

- kengashda mashg‘ulot ishlanmalari, tarbiya jarayonining shakl va metodlarini amalgalash yo‘llari muhokama qilinadi, tarbiyalashning ilg‘or usullarini joriy etish bo‘yicha tajribasnov ishlarini olib borish, oliy ta’lim institutlari, jamoat va nodavlat tashkilotlari, maktab, mahalla bilan hamkorlik qilish yo‘nalishlarini belgilaydi.

- kengash ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagogik jamoaning ma’lum yo‘nalishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va ta’lim samaradorligini oshirishda maqbul lozim-sharoitlar yaratishga oid yakuniy xulosa chiqaradi va tegishli qaror qabul qiladi. Malaka oshirish kursidan qaytgan pedagoglarning hisobotlarini tinglaydi.

- kengashda kun tartibidagi masalalarni ko‘rishdan oldin avvalgi kengashda qabul qilingan qarorlarining ijrosi haqidagi masala eshitiladi va ijrosi ta’minlangan har bir masala yuzasidan qabul qilingan qarorlar nazoratdan olinadi. Kengash kun tartibida ko‘rilayotgan har bir masala aniq ifodalangan bo‘lishi, masalalar o‘quv yilining asosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda kiritilishi lozim. Kengashda ko‘riladigan masalalar soni uchtadan oshmasligi zarur. Kengash qarori ijrosini nazorat qilish muassasa rahbari zimmasiga yuklatiladi.

## MUHOKAMA

Pedagogik kengashni tashkil etishning turli usullari va texnologiyalaridan foydalanish uning samara va natijalarini yanda boyitishga xizmat qiladi. XX asrning 70-yillarida o‘quvchilarining darslarga qiziqishlarining pasayish xavfi aniqlandi. Xavfni bartaraf etish uchun nostonart darslarning tashkil etishga e’tibor qaratildi. Xuddi shuningdek tashkil etiladigan kengashlar shunchaki ommaviy yig‘ilish shaklida olib borilishi ham pedagog xodimlar uchun zerikarli jarayonga aylanib qoldi. Bunday jarayonlarning oldini olish maqsadida an‘anaviy texnologiyalardan noan‘anaviy texnologiyalarga o’tila boshlandi. non‘anaviy texnologiyaning asosiy turlari sifatida quyidagi usullar qo‘llanila boshlandi. Rolli o‘yinlar, matbuot konferensiyalari, ijodiy hisobotlar, musobaqalar, KVN turidagi o‘yinlar, tanlovlari, teatrlashtirilgan darslar, binar darslar, kompyuterli darslar, fantaziyalar, “sudlar”, haqiqatni izlash, “paradokslar”, auksionlar, dialoglar. Shuningdek ularning yordamchi tur sifatida To‘garak; praktikum; seminar; konferensiya; maslahat (konsultatsiya); fakultativ mashg‘ulot; ekskursiyalari; mustaqil ishlaridan ham kengash maqsad va mavzularidan kelib chiqqan holda foydalanish mumkin.

## XULOSA

Xulosa o'mida shuni ta'kidlash lozimki tashkil etiladigan pedagogic kengashning qanchalik sermazmun bo'lishi ta'lim – tarbiyaviy jarayonda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kengashning samaradorligi uning puxta tayyorlanganligi va samarali tashkil etilganligi bilan bog'liq. Yaxshi rejalashtirilmagan, yetarlicha o'ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va pedagoglar imkoniyatlariiga moslashtirilmagan kengash sifatli bo'la olmaydi. Pedagogik kengashga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta'minlaydigan o'quv jarayonini tashkil etishning kompleks choralarini ishlab chiqishdir.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma'qullangan
2. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M. Qayumova, M.N.A'zamova. Maktabgacha pedagogika. Darslik. Toshkent – 2017 yil
3. lib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqlilish-kurishi/item/12433-strategik-boshqaruv-va-rejalashtirish
4. <http://geografiya.uz/pedagogik-texnologiya/10598-noananaviy-darslar-qanday-tashkil-tiladi.html>
5. Saidov A. Historical roots of formation of healthy lifestyle culture psychology in the family //International Journal of Pharmaceutical Research. – 2020. – T. 12. – №. 4. – C. 628-630.
6. Ismailovich A. S. PROBLEMS OF IMPROVING PSYCHOLOGY OF HEALTHY LIFESTYLE OF UZBEK FAMILY //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 1. – C. 313-318.
7. Ismoilovich, S. A. SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF THE FORMATION OF THE PSYCHOLOGY OF A HEALTHY LIFESTYLE OF FAMILIES.
8. Azamat, S. (2022). On The Basis Of National Values To Raise A Healthy Generation In The Family. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10), 2417-2420.
9. Saidov A. SOCIAL PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE FORMATION OF A CULTURE OF A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – C. 867-871.